

MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA TARIX FANINI O'QITISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR XUSUSIDA

Abdullayeva Gulrux Jo'shqin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika

Universiteti ning Tarix fakulteti 401- guruh talabasi

gulruxabdullayeva63@gmail. com

tel:+998 95 909-31-34

Annotatsiya

Maqolada maktabda tarix fanini o'qitishdagi muommolarni tahlil qilish va hal etish choralarini ko'rib chiqish, fanni o'qitishda yuzaga kelgan muommolarning sabab va oqibatlari haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, mafkura, milliy tarix, metodika, zamonaviy bilim Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lif tizimiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan maktab umuman olganda ta'lif tizimiga oid bir qator qonunlar va islohotlar ishlab chiqilmoqda. Shunga qaramasdan yoshlardan orasida fanga bo'lgan qiziqishlar biroz sustligi aytib o'tish joiz. Keyingi vaqtarda maktablarda o'quvchilarning darsda tartib - intizomi bilan bir qatorda fanlar doirasida ayniqsa, tarix faniga oid darslarda sustligi, tarix fani aslida nimaga kerak, degan talqindagi gaplar qulooqqa tez- tez chalinib qolmoqda. Bunga sabab o'qituvchidagi malaka, ko'nika yoki pedagogik xususiyatlarning yetishmasligimi, balki kitobdagi ma'lumotlar o'quvchiga yetarli va to'laligicha qiziqarli talqin etilmayotganimi yoki internet zamoni deb o'quvchilarning bor e'tibori zamonaviy texnikalarga qaratilganligimi? Savollar ko'p. Nima bo'lganda ham maktablar dars jadvalidagi eng muhim fanlardan biri tarixdir. Bu borada birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", degan fikrlari juda o'rinni. "Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur. Tarixni yoritishda biryoqlamalikka, sub'ektiv fikrlarga yo'l qo'ymaslik zarur, faqat bahs, munozara, tahlil mavzusi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadi"¹ Qolaversa, I. Karimov har bir o'zbek farzandi "mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan" degan savollarni o'ziga o'zi berishi kerakligini qayta - qayta uqtiradi".²

¹I.A.Karimov. Tarixiy Xotirasiz kelajak yo'q. T.:Sharq ", 1998 yil

²O'sha asar.



Haqiqatda ham tarixni bilmagan kishi kelajagini ham qurolmaydi. Ma'naviyatga, vatanga bo'lган muhabbatga, doim vatanimizga ko'z tikib turganlarga qarshi olg'a qadam bosishga undab turadi. Tarix shunday jarayonki, inson o'tmishdagi voqealarni o'rganib, aslida qanday bo'lish kerakligi haqida anglab yetishikerak. O'zbekiston tarixi ancha uzoqqa borib taqaladi. Tarixda juda ko'p mashhur allomalar bo'lган. Bularni sanab sonog'iga yetish qiyin. Ana shu ajdodlar avlodlar oldidagi ko'zgusir. Ular kelajakka qadam qo'yishda poydevor hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tarix va bobokalonlarimiz borasidagi fikrlari juda o'rinni. "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdek boy tarix, bobokalonlarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak", deb ta`kidlaydi.^{3.[3]}

Ho'sh shuncha boy tarixga ega bo'la turib, nega o'quvchilarni tarixga oid mavzular qiziqtirmay qo'ydi. Bunga sabab yoshlar orasida ma'naviyat yoqolib borayotganimi yoki vatanga bo'lган muhabbat yetishmaganligidanmi yoki oilada mana shu jarayonlar farzandlarga to'laqonli singdirilmaganligidanmi? Bundan ko'rinib turibdiki, muommolar ko'p.

Bugungi kun texnologiyalar asri bo'lганligi uchun o'quvchilarni faqat oddiy kitob darsliklari bilan qiziqtirib bo'lmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"⁴, deydi. Biz mana shu muommolar yechimini izlashimiz va uni maktablarda tatbiq qilishimiz kerak. Hozirga zamon texnologiyalar asri bo'lGANI uchun maktablarda tarixga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi ta'minlash, o'quvchilar ko'z o'ngida tarixni shakllantirish kerak. Qolaversa, hozirgi kunda urf bo'layotgan zamonaviy bobokalonlarimizning sun'iy intelektlaridan dars jarayonlarida foydalanish lozim. O'qituvchilarda vatanga, ajdodlarga bo'lган muhabbatni mafkuraviy g'oya sifatida ongiga sindirishkerak. Bu o'rinda prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"⁵, deydi. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita

³ Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 15-iyunda O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi quriladigan hududga tashrif buyurgan paytdagi so'zlagan nutqidan.

⁴ Shavkat Mirziyoyevning ma'naviyatni yuksaltirish bo'yicha yig'ilishdagi nutqi

⁵ Aniq.uz saytidan



mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”⁶.

Demak, biz maktab yoshlarini tarix faniga yo‘naltirishda umuman olganda, fanga qiziqtirishda zamonaviy bilimlar bilan yondashishimiz, eng avvalo ularni ma’naviyatga, vatanga bo‘lgan muhabbat, ajdodlarimizdan faxrlanishga ulardan kuch olishga, ular kabi butun dunyoga o‘z bilimi bilan tanilishiga yordam berishimiz, ruhlantirishimiz kerak. Shunda biz oldimizga qo‘ygan maqsadga erisha olamiz.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy Xotirasiz kelajak yo‘q. T.: “Sharq”, 1998
2. Sh. Mirziyoyevning Ma`naviyatni yuksaltirish bo`yicha yig`ilishi
3. Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 15-iyunda O’zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi quriladigan hududga tashrif buyurgan paytdagi so’zlagan nutqidan
4. aniq.uz sayti



⁶ O‘sha sayt